

Contact: Kate Fairweather (+44 20 7710 9842 or kfairweather@curtis.com)
Sangeeta Barua (+1 212 696 6107 or sbarua@curtis.com)

FINAL FOR ISSUE

Curtis Markaziy Osiyoda o'z faoliyatini kengaytirib, Toshkent shahrida yangi ofis ochdi

TOSHKENT, O'ZBEKISTON – 2025-yil 14-noyabr – Xalqaro yuridik firma Curtis, Mallet-Prevost, Colt & Mosle LLP Toshkent shahrida yangi ofisining ochilishini e'lon qiladi.

Yangi ofis Markaziy Osiyo mintaqasidagi mijozlarga investitsiya arbitrajleri, tijorat nizolari, davlat manfaatlarini himoya qilish, shuningdek korporativ va tijorat huquqi yo'nalishlarida yuqori malakali yuridik xizmatlar ko'rsatish borasida firmalarning strategik qat'iyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Toshkent ofisi dastlab AQSh, Buyuk Britaniya va Yaqin Sharqdagi Curtis ofislaridan jalb etilgan xalqaro yuristlar guruhi tomonidan boshqariladi. Jamoa xalqaro huquq (jumladan Angliya va AQSh huquqi), tarmoqqa oid chuqur ekspertiza, mintaqaviy tajriba hamda biznesda qo'llaniladigan mahalliy tillarni mukammal bilishga ega mutaxassislardan iborat:

- **Dr. Borzu Sabahi** – xalqaro nizolar bo'yicha yetakchi mutaxassis va firmaning O'zbekiston hukumati bilan amaldagi loyihalarida bosh sherigi. Dr. Sabahi xalqaro arbitraj va xalqaro huquqi bo'yicha katta tajribaga ega;
- **Dr. Marat Umerov** – xalqaro arbitraj va xalqaro savdo bo'yicha katta yurist, investitsiyalarni himoya qilishga doir shartnomalar va qonunlar, shuningdek erkin savdo bitimlari doirasidagi nizolar bo'yicha keng amaliy tajribaga ega. Ilgari – Markaziy Osiyo va Kavkazdagi iqtisodiyot va xavfsizlik masalalarini tadqiq qilgan Karnegi xalqaro tinchlik jamg'armasining ilmiy xodimi. Rus tilini mukammal biladi;
- **Marc Hammerson** – neft-gaz sohasidagi yetakchi sherik, Afrikadagi va Yaqin Sharqdagi rivojlanayotgan bozorlarda amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha tajribasi, shuningdek davlat neft kompaniyalarida mijozlarga xizmat ko'rsatish va tashqi bosh yuridik maslahatchi sifatida to'plagan in-house tajribasi bilan tanilgan;
- **Julien Hansen** – xalqaro M&A, qo'shma korxonalar va private equity bo'yicha tajribali korporativ sherik. Tabiiy resurslar, texnologiyalar va ko'chmas mulk sohalarida chuqur amaliy tajribaga ega. Rus tilini yaxshi biladi va MDH mintaqasida 20 yildan ortiq ish tajribasiga ega;
- **Maria Ongoren** – xalqaro arbitraj va tijorat nizolari bo'yicha tajribali yurist hamda O'zbekiston hukumatini himoya qilayotgan Curtis jamoasining asosiy a'zolaridan biri. Qurilish, tabiiy resurslar, bank sektori va telekommunikatsiya sohalarida keng tarmoqli tajribaga ega. Rus tilini mukammal biladi va MDH davlatlari qonunchiligi bo'yicha chuqur bilimga ega;

- **Arslan Makharamov** – O‘zbekiston fuqarosi, xalqaro nizolar va korporativ huquq amaliyotiga ko‘mak berib keladi. O‘zbekiston Prezidenti Administratsiyasi tizimida qonunchilik tahlili va huquqiy siyosat ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tajriba to‘plagan. O‘zbek va rus tillarini mukammal biladi.

Toshkent ofisi faoliyati Buyuk Britaniya va Yaqin Sharqdagi Curtis ofislarining asosiy yuristlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va firmaga xos bo‘lgan eng yuqori xalqaro standartlar ta‘minlanadi. Firmaning turli ofislarida faoliyat yuritayotgan 30 dan ortiq rus tilini biladigan yuristlar tufayli Curtis mintaqada sezilarli til va madaniy ustunlikka ega bo‘lib, mijozlarga uzluksiz xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydi.

Curtis raisi George Kahale III kompaniyaning kengayishidagi strategik ahamiyatni ta‘kidladi: «Bizning Toshkentdagi yangi ofisimiz Curtis’ning mijozlarimiz eng ko‘proq muhtoj bo‘lgan joylarda faol bo‘lishga sodiqligini aks ettiradi. Bu kengayish bizning global o‘shish strategiyamizning bir qismi bo‘lib, Curtis’ning dunyoning eng muhim rivojlanayotgan bozorlarida yetakchi o‘rinda qolishini ta‘minlaydi».

Firma tomonidan O‘zbekiston Respublikasining yirik xalqaro arbitrajlarda vakilligi olib borilishi Curtis’ga Markaziy Osiyo bozorining o‘ziga xosliklarini chuqur tushunish imkonini berdi. Toshkentdagi yangi ofis firmaga butun mintaqaga bo‘ylab mijozlarga yanada samarali xizmat ko‘rsatish imkonini beradi.

Markaziy Osiyoga strategik e‘tibor

Toshkentdagi ofisning ochilishi Curtis’ning Markaziy Osiyo va MDH mintaqasiga yo‘naltirilgan strategik e‘tiborini yanada mustahkamlaydi hamda firmalarning mintaqadagi uzoq yillik aloqalari va Qozog‘istondagi mavjud faoliyatini yanada rivojlantiradi. Xalqaro yuridik firmalar orasida eng qadimgilaridan biri bo‘lgan Curtis jadal rivojlanayotgan bozorlarga ega davlatlarda ishlash bo‘yicha katta tarixiy tajribaga ega.

Yangi ofis Curtis’ning davlatlarni vakillik qilish yo‘nalishidagi mustahkam obro‘sinı yanada mustahkamlaydi. Firma hukumatlar va davlat korxonalarining manfaatlarini murakkab xalqaro nizolarda himoya qilish bo‘yicha yirik tajribaga ega. Hozirda Curtis O‘zbekiston Respublikasini asosiy investitsiya arbitrajlarida vakillik qilmoqda, bu esa firmalarning mintaqaga huquqiy muhitini chuqur tushunishi va energetika sektorida – global miqyosda ham, Yevroosiyo hududida ham – to‘plagan salmoqli tajribasini aks ettiradi.

Ushbu ofis mintaqaga mijozlariga Curtis’ning quyidagi keng qamrovli yuridik xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi: xalqaro arbitraj, murakkab tijorat nizolari, transchegaraviy sud jarayonlari, davlat manfaatlarini himoya qilish, xalqaro jamoat huquqi, investitsiya fondlari bilan ishlash, korporativ va tijorat masalalari, shuningdek energetika, neft-gaz, konchilik, ko‘chmas mulk, infratuzilma rivoji, family office xizmatlari va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar.

– Matbuot xabari yakuni –

Muharrirlar uchun eslatma

Curtis, Mallet-Prevost, Colt & Mosle LLP – yetakchi xalqaro yuridik firma. Bosh ofis Nyu-Yorkda joylashgan bo‘lib, firma AQSh, Lotin Amerikasi, Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyoda 18 ta ofis va vakolatxonalarga ega. Curtis mijozlarining keng doirasiga xizmat ko‘rsatadi: hukumatlar va davlat korxonalari, ko‘p millatli korporatsiyalar, moliyaviy institutlar, suveren fondlar, aktivlarni

boshqaruvchilar, xususiy kompaniyalar, jismoniy shaxslar va tadbirkorlar. Batafsil ma'lumot firmaning quyidagi sayti orqali mavjud: www.curtis.com.